

Umumta'lim muassasalarida ruxsat etilmaydigan oziq-ovqat mahsulotlari va taomlari ro'yxati

- Go'sht qo'shilgan, mayonez, ketchup va orasiga sabzavotlar solingan non mahsulotlari (gamburger, chizburger va xot-doglar).
- Sun'iy ta'm, hid beruvchi moddalar, bo'yoqlar, aromatizatorlar qo'shilgan qandolatchilik mahsulotlari.
- Sun'iy konservantlari bor mahsulotlar (kiriyeski, xrustyashki).
- Chipslar.
- Rangli va rangsiz gazlangan ichimliklar.
- Yaroqlilik muddati tugagan va sifatsiz bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari.
- Bir kun oldin tayyorlangan va qolib ketgan ovqatlar.
- Eskirgan, sifati buzilgan sabzavotlar.
- Veterinariya nazoratidan o'tmagan go'sht, baliq, parrandalar.
- Jigar, til va yurakdan tashqari barcha kalla poychalar.
- Ichak-chavoqdan tozalanmagan parranda.
- Tashqi qavati toza bo'lmagan, singan, shuningdek, salmonellezga nohush vaziyat deb topilgan xo'jaliklardan olingan tuxumlar.
- Bankalarni germetikligi buzilgan, bombajli, zanglagan, shakli o'zgargan, yorlig'i bo'lmagan va ishlab chiqarish vaqti hamda yaroqlilik muddati belgilanmagan konservalar.
- Turli aralashmalar bilan yoki ombordagi zararkunandalar bilan zararlangan yorma, un, quritilgan mevalar va boshqa mahsulotlar.
- Uy sharoitida tayyorlangan (ishlab chiqarish turidagi bo'lmagan) barcha oziq-ovqat mahsulotlari.
- Kremli qandolat mahsulotlari (tort va pishiriqlar).
- Xolodes, parranda va tuyoqli xayvonlar oyog'idan tayyorlangan hamda kalla go'shti ruletlari, o'pka-jigarli va qondan qilingan kolbasalar.
- Pasterizatsiya qilinmagan (flyagadagi) tvorog, termik ishlov berilmagan, idishda saqlangan tvorog va qaymoq.
- Qo'lbola qatiq.

- Qo'ziqorinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar.
- Kvas.
- Epizootik nohush xo'jaliklardan olingan, shuningdek, dastlabki ishlov berilmagan va pasterizatsiya qilinmagan sut va sut mahsulotlari.
- Xom dudlangan go'shtli gastronomik mahsulotlar va kolbasalar, shu jumladan kaynatilgan kolbasa.
- Issiqlik bilan ishlov berilmagan go'sht, parranda, baliqdan tayyorlangan taomlar.
- Sirka, xantal, xren, o'tkir qalampir (qizil, qora) va boshqa o'tkir ziravorlar.
- O'tkir ta'mli souslar, ketchuplar, mayonez, konservalar, marinadlangan sabzavot va mevalar.
- Tabiiy kofe, tetiklantiruvchi va quvvatni oshiruvchi energetik ichimliklar, alkogol.
- Pazandalik moylari, cho'chqa yog'i, margarin va boshqa gidrogen yog'lar.
- Danakli mevalarning mag'zi.
- Saqich.
- Qimiz va tarkibida etanol bo'lgan (0,5%dan ortiq) boshqa achitilgan sutli mahsulotlar.
- Ustiga sardak solinadigan (go'shtli va baliqli) taomlar, qiyma yoki ezilgan seld balig'idan kartoshka qo'shib tayyorlangan ovqat.
- Meva va rezavorlilardan tayyorlangan yaxna ichimliklar va morslar (termik ishlovsiz).
- Okroshka va sovuq sho'rvalar.
- Qiymali makaron, to'g'ralgan tuxumli makaron (makaronы po flotski).
- Yog'da qovurilgan tuxum.
- Pashtet, go'sht va tvorogli quymoqlar.
- Tez tayyorlanadigan quruq oziq-ovqat konsentratlar asosidagi birinchi va ikkinchi taomlar.